

2025-yil 28 "fevral" dagi 03-03/17-2178
Startaplar ekotizimini rivojlantirish bo'yicha
Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi
bayoniga 6-sonli ilova

Startap loyihalarga qarz mablag'larini ajratish mexanizmi to'g'risida **NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Startap-loyihalar va vechur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-357-sun qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, u Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz punktga yuqori stavkada 300 million so'mgacha garovsiz startap-loyihalarga qarz mablag'larini ajratish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

Dastur – raqamli texnologiyalar sohasidagi startaplarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Raqamli startaplar dasturi;

Platforma – Startap loyihalar ekotizimi platformasi (www.startupbase.uz);

Direksiya – "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MChJ;

Vechur fondi – "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MChJ huzuridagi yuqori tavakkalchilikka ega loyihalarga mablag' kiritish uchun mo'ljallangan investitsiya kompaniyasi;

Da'vogar – yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan, Dastur ishtirokchisi bo'lgan va qarz mablag'larini olish niyatiga ega startap-loyihalar;

Qarz mablag'ları – Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz punktga yuqori stavka bo'yicha Vechur fondi tomonidan beriladigan 300 million so'mgacha bo'lgan miqdordagi pul mablag'ları;

Qarz oluvchi – da'vogar, qarz mablag'larini olgan va ulardan maqsadli foydalanish hamda qarz summasini va u bo'yicha foizlarni belgilangan muddatda qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga olgan tomon;

Skoring – yuridik shaxsning kreditga layoqatliligin (kredit tavakkalchiliklarini) baholash tizimi bo'lib, u qarz berishda qo'llaniladi va raqamli statistik usullarga asoslangan. Bu tizim kompaniyaning moliyaviy hisoboti, kredit tarixi, joriy majburiyatları va boshqa ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

II. Qarz mablag'larini taqdim etish shartlari va tartibi

- 3.** Qarz mablag'lari ushbu Nizomning 1-ilovasidagi sxemaga muvofiq beriladi.
- 4.** Dastlabki baholash, arizalarni ko'rib chiqish va qarz mablag'larini ajratish Venchur fondi tomonidan skoring natijalari asosida amalga oshiriladi.
- 5.** Qarz mablag'larini olish uchun da'vegarlar quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:
 - faoliyat davomiyligi – 6 oydan 7 yilgacha;
 - kalendar yildagi jami daromad – 10 milliard so'mdan oshmasligi;
 - inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturlari muvaffaqiyatli yakunlanganligini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi;
 - raqamli texnologiyalarga asoslangan, yuqori o'sish va xorijiy bozorlarga chiqish salohiyati bo'lgan biznes modelga ega;
 - startap loyihalar ekotizimi platformasida ro'yxatdan o'tgan;
 - dastur ishtirokchisi sifatida platformada ro'yxatdan o'tganligi;
 - ijobiy kredit tarixining mavjudligi;
 - kontragentlar oldida qarzdorlikning yo'qligi, shu jumladan yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasi davlat budgetiga soliqlar va majburiy to'lovlар bo'yicha qarzdorlik yo'qligini tasdiqlashi;
 - iqtisodiy nochorlik holatining yo'qligi;
 - qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emaslik;
 - muddatidan oldin undirish choralar qo'llanilmaganligi;
 - so'nggi uch yilda barqaror moliyaviy ko'rsatkichlarga ega yuridik shaxs bilan kafillik shartnomasi va (yoki) qarz summasini qaytarmaslik xavfini sug'urtalash shartnomasiga (sug'urta polisi) ega bo'lishi.
- 6.** Qarz mablag'lari ushbu Nizomning 17-bandiga muvofiq zarur hujjatlar taqdim etilgandan so'ng, Venchur fondi tomonidan ma'qullah to'g'risida qaror qabul qilingach va tomonlar qarz shartnomasini imzolagandan so'ng, berilgan arizalar asosida naqd pulsiz shaklda taqdim etiladi.
- 7.** Qarz mablag'larining maksimal miqdori qarzni olish maqsadlari va startapning rivojlanish bosqichiga qarab belgilanadi, biroq 300 million so'mdan oshmasligi lozim.
- 8.** Qarz mablag'lari Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz punktga yuqori bo'lgan foiz stavkasi bo'yicha uch yildan ko'p bo'lmasdan muddatga beriladi.
- 9.** Qarz oluvchi ilgari berilgan qarzni to'liq qaytargan taqdirda, yiliga ko'pi bilan ikki marta qarzni takroran olish huquqiga ega.
- 10.** Qarz mablag'larini qaytarish jadvali qarzning muddati va maqsadlariga qarab Venchur fondi tomonidan o'rnatiladi.

11. Qarz va uning bo'yicha hisoblangan foizlarni qaytarish tasdiqlangan jadval asosida pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

12. Venchur fondi qarz mablag'larining samaradorligi va ulardan maqsadli foydalanimishini doimiy ravishda kuzatib borishi va shunga doir kerakli hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

13. Qarzni undirishda birinchi navbatda qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar undiriladi.

14. Qarz va hisoblangan foizlar to'lanmaganda yoki o'z vaqtida to'lanmaganda, Venchur fondi qonunchilikda belgilangan tartibda qarzni undirish uchun startap loyiha bankiga murojaat qilish huquqiga ega.

15. Jarimalar yoki hisoblangan foizlar mavjud bo'lmaganda, faqat foydalanimigan muddat uchun qarzni muddatidan oldin to'lash mumkin.

16. Qarz oluvchining haqiqiy va prognoz qilingan moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari qarz mablag'larini berish shartlari bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini, shu jumladan qarz summasi va uning bo'yicha foizlarning qaytarilishini ta'minlash imkoniyatiga mos bo'lishi kerak.

III. Qarz mablag'larini taqdim etish uchun arizalar berish tartibi

17. Qarz mablag'larini olish uchun da'vogar Direksiya tomonidan tasdiqlanadigan shaklga muvofiq platformada ariza topshirishi va unga quyidagi hujjatlar hamda ma'lumotlarni ilova qilishi lozim:

- qarz mablag'larini olish maqsadi;
- buxgalteriya hisoboti (kompaniya balansi, foya va zararlar to'g'risidagi hisobot, pul mablag'ları harakati to'g'risidagi hisobot, soliq deklaratasiyalari);
- qarz mablag'larini olish maqsadlari, bozor tahlili, kutilayotgan daromadlilik va potensial xatarlarni o'z ichiga olgan bat afsil biznes-reja;
- ta'sis hujjatlari;
- startap-loyiha asoschilarini tomonidan qarz mablag'larini olish niyati haqidagi qaror.

IV. Arizalarni ko'rib chiqish tartibi

18. Arizalar ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema asosida 10 (o'n) ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi.

19. Venchur fondi ariza kelib tushgan vaqtadan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida ilova qilingan hujjatlarning to'g'ri rasmiy lashtirilganligi va to'liqligini tekshiradi.

20. Ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlanganda, shuningdek, ishonchsiz (noto'g'ri) ma'lumotlar aniqlanganda yoki majburiy ma'lumotlar mavjud

bo‘limganda, Venchur fondi rad etishga va (yoki) ariza beruvchiga qayta ishlash uchun qaytarishga haqli. Bunda arizani takroran yuborish vaqtin ko‘rib chiqish muddatining boshlanishi hisoblanadi.

21. Dastlabki ko‘rib chiqishdan so‘ng Venchur fondi 7 (yetti) ish kuni ichida ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni ko‘rib chiqadi. Buyurtmanomani ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, Venchur fondi qarz berishni ma’qullah yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ariza ma’qullangan taqdirda, da’vogarga platforma va ro‘yxatdan o‘tishda jarayonida ko‘rsatilgan elektron pochta orqali qarz mablag‘larining kelishilgan miqdori va ularni olish uchun talablar ro‘yxati haqidagi ma’lumotni o‘z ichiga olgan xabarnoma yuboriladi.

Rad etilgan taqdirda da’vogarga ro‘yxatdan o‘tkazishda ko‘rsatilgan platforma va elektron pochta orqali rad etish sababi ko‘rsatilgan bildirishnoma yuboriladi.

22. Zarurat tug‘ilganda, Venchur fondi tomonidan da’vogar bilan suhbat o‘tkazilishi mumkin.

23. Ariza ma’qullanganda, qarz mablag‘lari qarz shartnomasi tuzilgan va so‘nggi uch yilda barqaror moliyaviy ko‘rsatkichlarga ega yuridik shaxs bilan kafillik shartnomasi va (yoki) qarz summasini qaytarmaslik xavfini sug‘ortalash shartnomasiga (sug‘urta polisi) taqdim etilgan paytdan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida da’vogarning bank hisob raqamiga o‘tkaziladi.

24. Arizani ko‘rib chiqishda Venchur fondi ushbu Nizom va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga amal qiladi.

V. Qarz mablag‘larini berishni rad etish asoslari

25. Quyidagilar qarz mablag‘larini berishni rad etish uchun asos bo‘lishi mumkin:

- mazkur Nizomning 5-bandida ko‘rsatilgan shartlarga muvofiq kelmasligi;
- ushbu Nizom talablariga rioya etilmasligi;
- ishonchsiz (noto‘g‘ri) ma’lumotlarni taqdim etish yoki majburiy ma’lumotlarni taqdim etmaslik.

26. Qarz mablag‘larini berish rad etilgan taqdirda, Venchur fondi da’vogarga rad etish sabablarini ko‘rsatgan holda xabarnoma yuboradi.

27. Qarz mablag‘larini berish rad etilgan taqdirda, da’vogar Venchur fondi tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish va takroran ariza topshirish huquqiga ega.

VII. Qarz mablag‘laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish

28. Venchur fond har chorakda qarz oluvchidan quyidagi ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega:

- korxonaning moliyaviy hisoboti (buxgalteriya balansi);
- moliyaviy natijalar, foya va zararlar to'g'risidagi hisobot;
- so'nggi chorak uchun debitorlik va kreditorlik qarzlarining tafsiloti;
- hisob-faktura;
- bajarilgan ishlar dalolatnomasi.

29. Venchur fondi har chorakda qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati monitoringini o'tkazadi. Monitoring yakunlari bo'yicha yozma hisobot tuziladi, unda qarz oluvchi biznesining xarakteridagi barcha muhim o'zgarishlar (yoki ularning yo'qligi) qayd etiladi.

30. Qarz oluvchining moliyaviy hisoboti xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida belgilangan shaklda taqdim etilishi mumkin.

IX. Yakuniy qoidalar

31. Ushbu Nizom tadbirkorlik subyektlarining ehtiyojlari va qarz mablag‘larini berish mexanizmining samaradorligi tahlili natijalariga ko'ra qayta ko'rib chiqilishi va takomillashtirilishi mumkin.

32. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish Direksiya tomonidan amalga oshiriladi.

Startap loyihalarga qarz mablag'larini
ajratish mexanizmi to'g'risidagi
nizomga 1-son ilova

Startap loyihalarga qarz mablag'larini ajratish va arizalarni ko'rib chiqish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Da'vogar	Platformada zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza topshiradi.	Zarur bo'lgan hollarda
2-bosqich	Venchur fondi	<p>Arizaning to'g'ri rasmiylashtirilganligini va ilova qilingan hujjatlarning to'liqligini tekshiradi.</p> <p>a) Ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlanganda, shuningdek, majburiy ma'lumotlar ishonchsiz (noto'g'ri) bo'lsa yoki mavjud bo'lmasa, arizani rad etadi yoki uni qayta ishslash uchun qaytaradi.</p> <p>Bunday holda, arizani qayta yuborish vaqtin to'g'rib chiqish muddatining boshlanishi hisoblanadi.</p> <p>b) Ilova qilingan hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgan va to'liq bo'lsa, arizani qabul qiladi.</p>	3 (uch) ish kuni mobaynida
3-bosqich	Venchur fondi	<p>1. Arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqadi hamda arizani rad etish yoki ma'qullash to'g'risida qaror qabul qiladi.</p> <p>2. Ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha da'vogarga platformada va elektron pochta orqali arizani ma'qullash (kelishilgan qarz mablag'lar miqdori va ularni olish uchun talablar ro'yxati to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda) yoki rad etish to'g'risidagi bildirishnomani yuboradi.</p>	7 (yetti) ish kuni mobaynida
4-bosqich	Venchur fondi	Ariza ma'qullangan taqdirda, da'vogar bilan qarz shartnomasi tuziladi va qarz mablag'larini da'vogarning bank hisobvarag'iga o'tkaziladi.	Qarz shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni mobaynida
5-bosqich	Venchur fondi	Ajratilgan qarz mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat olib boradi.	Har chorakda